

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI
“Energetika va sa’noatni axborotlashtirish” fakulteti
“Informatika va axborot texnologiyalari” kafedrası

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

*MAVZU: “Sxemotexnika” fanidan “Mikroprosessorlar
sxemotexnikasi asoslari” mavzusi bo’yicha interfaol
vital stend yaratish.*

Topshirdi:
BMI rahbari:

X. Sotimboyeva
E. Imomnazarov

Mundarija

KIRISH	8
1-BOB. INTERFAOL VIRTUAL STEND YARATISH HAQIDA MAVJUD MANBALAR TAHLILI	12
1.1. O`zbekistonda axborotlashtirishning milliy tizimi va virtual stendlar yaratishdagi asosiy vazifalar	12
1.2. Interfaol virtual stendlar yaratish bo`yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili.....	18
1.3. Multimedia o`qitishda elektron virtual tajriba stendlarni loyihalash bosqichlari.....	21
1.4. Masalaning o`rganilgan darajasi va uning qo`yilishi.....	24
2-BOB. SXEMOTEXNIKA FANIGA OID ME`YORIY HUJJATLAR VA VIRTUAL STEND YARATISH DASTURIY VOSITALARI.....	27
2.1. Sxemotexnika faniga oid me`yoriy hujjatlar va ularning tahlili..	27
2.2. Interfaol virtual stendlarni yaratish dasturiy vositalari va ularning solishtirma imkoniyatlari	32
2.3. Interfaol virtual stendlarni yaratishda kompyuterning texnik imkoniyatlariga talablar	42
2.4. “Mikroprosessorlar sxemotexnikasi” asoslari mavzusi nazariy ma`lumotlarni shakllantirish.....	43

3-BOB. INTERFAOL VIRTUAL STEND YARATISH VA UNI O`QUV JARAYONIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQISH	48
3.1. Mikroprosessorlar sxemotexnikasi asoslari mavzusi bo`yicha interfaol virtual stend yaratish texnologiyasi.....	48
3.2. Yaratilgan interfaol virtual stendidan foydalanish yo`riqnomasi	50
3.3. “Mikroprosessorlar sxemotexnikasi asoslari” mavzusi bo`yicha amaliy dars mashg`ulotlarini tashkil etish	52
4-BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI	58
4.1. O`quv kompyuter sinfida xavfsizlik texnikasi qoidalari.....	58
4.2. O`quv laboratoriya xonalarida kullanilayotgan elektr jixozlaridan xavfsiz foydalanish chora va tadbirlari	62
Xulosa.....	68
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	70
Ilova.....	72

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishlarida quyidagi ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy soxalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muxim tashabbusni ilgari surgan edilar.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ana shu ezgu g'oya Prezidentimizning Sirdaryo viloyatiga tashrifi chog'ida boshlanib, qisqa vaqtda ulkan ishlar amalga oshirildi. Sirdaryo viloyatidagi tuman va shaxarlar kutubxonalariga 300 ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. Musiqa va san'at maktablari cholg'u asboblari, sport ob'ektlari jixozlar bilan ta'minlandi.

Bu ishlar Namangan viloyatida ham davom ettirilib, "Ma'rifat karvoni" tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi.

Bir soʻz bilan aytganda, ushbu 5 ta tashabbus xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Yigʻilishda mazkur tajribani mamlakatimizning barcha xududida keng joriy qilish masalalari muhokama etildi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari, 312 ta musiqa va sanʼat maktablariga atigi 130 ming nafar oʻgʻil-qiz qamrab olingani, ushbu muassasalarning aksariyati oʻquv qoʻllanmalari, notalar toʻplami, musiqa asboblari, mebel va jihozlar bilan yetarli darajada taʼminlanmagani koʻrsatib oʻtildi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga ilgʻor xalqaro tajribalar asosida barcha shahar va tumanlar markazlarida Raqamli texnologiyalar oʻquv markazlarini tashkil etish boʻyicha topshiriq berildi. Bu markazlarda elektron tijorat va dasturlash bepul oʻrgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlik bilan shugʻullanish boʻyicha innovatsion koʻnikmalar beriladi, “startup” loyihalarga yordam koʻrsatiladi.

Bugungi kunda barcha maktablarda kompyuter texnikalari boʻlishiga qaramasdan, internet xizmatidan yetarli darajada foydalanilmayotgani tanqid qilindi. Xalq taʼlimi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga 2021 yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmogʻi bilan taʼminlash boʻyicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish vazifasi qoʻyildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlarini amalga oshirish boʻyicha komissiyalar bilan birgalikda davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni fikrimizning dalili sifatida keltirib oʻtishimiz mumkin.

Shuningdek, 19.02.2018 yil PF-5349-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonini ushbu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarni belgilab bermoqda.

Fan sohasini formal tasnifi. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan Sxemotexnika fani umumkasbiy fanlar bloki bo'limida keltirilib, bu fan o'quvchilarga 2,3 kursda o'qitiladi. SHuningdek, oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fan sifatida o'qitiladi. Bitiruv malakaviy ishida keltirib o'tilgan "Sxemotexnika" fanidan "Mikroprosessorlar sxemotexnikasi asoslari " mavzusi bo'yicha interfaol virtual stend yaratish mavzusi ham aynan mana shu yo'nalishda foydalaniladigan virtual stend yaratish dasturlarini o'rganish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot imkoniyatlarini ochib beruvchi dasturiy mahsulot yaratish nazarda tutiladi.

Ushbu sohadagi muammolar va mazkur ishning zarurati. Ushbu fan sohasida juda ko'plab dasturiy vositalar ishlab chiqilgan, lekin ushbu yo'nalish bo'yicha yangi dasturiy instrumentlar ham yaratilmoqdaki, ularni imkoniyatlari yanada kengroq va ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. SHunday imkoniyatlardan biri virtual tajriba stendlarini yaratish hisoblanadi. "Sxemotexnika" fanidan "Mikroprosessorlar sxemotexnikasi asoslari " mavzusi bo'yicha interfaol virtual stend yaratishni o'rganishning asosiy sababi ham kasb-hunar kollejlarining mazkur mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarni yangi kompyuterning texnik imkoniyatlari bilan tanishtirish hamda ularni o'rganish bo'yicha bilim saviyalarini yanada oshirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi va vazifalari (samaradorligini oshirish, sifatini yaxshilash). Yuqorida keltirib o'tilgan bitiruv malakaviy ishi mavzusining, ya'ni "Sxemotexnika" fanidan "Mikroprosessorlar sxemotexnikasi asoslari " mavzusi bo'yicha talabalarni bilim va saviyalarini oshirishda mustaqil ta'lim sifatida hamda o'quv jarayonida virtual tajriba stendi ishlab chiqish va o'quv jarayonida qo'llash orqali maqsadga erishish nazarda tutiladi.

Masalaning noformal tavsifi (mazkur ishning maqsadi). Bitiruv malakaviy ishida oliy ta'lim muassasalarining Sxemotexnika fanida o'quv jarayonida mavzuga qo'llash va yetarli samaraga erishish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

1-BOB. INTERFAOL VIRTUAL STEND YARATISH HAQIDA MAVJUD MANBALAR TAHLILI

1.1. O`zbekistonda axborotlashtirishning milliy tizimi va virtual stendlar yaratishdagi asosiy vazifalar

O`quvchilarga ma`lum maqsadlar asosida nazariy bilim berish hamda ularda tegishli amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirishda, shubhasiz, virtual trenajerlar va virtual trenajerlari asosida amaliy mashg`ulotlar o`tkazishning o`z o`rni bor. Respublika Oliy majlisining 1997 yil 29 avgustda o`tkazilgan IX-sessiyasida «Ta`lim to`g`risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlari qabul qilingandan so`ng, ta`lim sohasida bir qancha o`zgarishlar bo`ldi. O`qitish metodlariga turli usullarni qo`llash, kasb-xunar kollejlarida, o`rta maktablarda, oliygohlarda turli interfaol usullardan foydalanish, hamda virtual trenajerlar yaratish va ularni o`quv jarayoniga qo`llash o`z samarasini ko`rsatmoqda.

Elektron interfaol virtual stend dasturiy mahsulotlar zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma`lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangitdan saqlash bilimlarni interfaol usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniga ega bo`lgan manba hisoblanadi.

Bugungi kunda ilm fan jadal taraqqiy etishi, zamonaviy axborot kommunikasiya vositalari keng joriy etilishi, bilimlarning tez yangilanib borishi, ta`lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini quymokda.

Uzluksiz ta`lim tizimida fan va texnologiyalarning rivojlangani sari mazmuni tez o`zgaruvchan, chuqurlashtirilib o`qitiladigan, umumkasbiy va maxsus fanlar bo`ycha, asosan kam adadli, elektron o`quv adabiyotlarini tayyorlash o`qitish jarayonida yaxshi samara beradi.

Ta`limni isloh qilish shunday elektron o`quv adabiyotlarini yaratishni talab qiladiki ularning mavjud bo`lishi o`quvchilar va o`qituvchilar uchun ta`lim

muassasi va uy sharoitida bir hil bo'lgan kompyuterli muhitni ta'minlashni taqozo etadi.

Elektron interfaol virtual stend dasturiy mahsulotlar bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina tushunchalarning keng ma'nodagi izohli talqini kompyuter va axborot texnologiyalari rivojlanib borishi bilan yanada kengayib borayotgan bilimlar bilan to'ldirilib borilmoqda.

«Uzluksiz ta'lim tizimida o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi»ga muvofiq Elektron interfaol virtual stend kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;
- multimedia (multimediya — ko'p axborotli muhit) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot, uch o'lchamli grafik ko'rinishida, ovozli, video, animasiya va qisman verbal (matn) shaklda;
- taktil (his qilinuvchi seziluvchan) xususiyatga ega, o'quvchini kompyuter ekrani olamida o'zining stereo nusxalari tasvirlangan real olamga kirib borishi va undagi ob'ektlarga nisbatan tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Interfaol virtual stend — universal dasturiy ta'minot bo'lib, u muayyan kasbiy faoliyatning o'qish yoki axborot turlari va ularni qayta ishlashni avtomatlashtirishda o'rgatuvchi sifatida foydalanishga imkon beradi.

Xorijiy davlatlarda uslubiy va axborot dasturli vositalarni ishlab chiqish uchun yuqori malakali psixologlar, maxsus fan o'qituvchilar, kompyuter dizaynerlari va boshqa mutaxassislar jalb etiladi. yetakchi korxona va firmalari o'quv yurtlarida kompyuterli o'quv tizimlarini yaratish loyihalarini moliyalashtiriladi va bu sohada izlanishlar olib borishadi. Ilk o'quv elektron dasturlik vositalarni yaratish uchun bevosita dasturlashtirish texnologiyasidan foydalanilgan. Dasturchi sifatida ko'pincha oliy o'quv yurtlarining yuqori bosqich talabalari va aspirantlari ishtirok etishgan.

O'tgan asrning 80-chi yillaridan boshlab o'qitishni axborotlashtirishning san'at intellekti ishlanmalarga asoslangan intellektual o'qitish tizimlarini yaratish va qo'llash bilan bog'liq bo'lgan yangi yo'nalishi intensiv rivojlanmoqda. Bunga o'xshash tizimlarning ma'lum qismi bo'lib talim oluvchi, ta'lim berish jarayoni, fan sohasining modeli hisoblanib, uning asosida har bir o'quvchi uchun ta'lim berishning rasional strategiyasi qurilishi mumkin. Intellektual ta'lim oluvchilarning bilimlar bazasi fan sohasida ham o'qitishning nazariyasi va uslubiyoti sohasida ham ekspert bilimlarni saqlashi mumkin. XX asrning 80-chi yillarida EHMLarning keng tarqalishi ta'lim sohasida nafaqat yangi texnikaviy, balki didaktik imkoniyatlarni ham yaratdi. EHMLarning asosiy afzalliklari ularning yaqinlashuvchanligi, dialogli muloqotning oddiyliги va albatta, grafik imkoniyatlaridir. O'quv kompyuter tizimlarida grafik illyustrasiyalarni qo'llash faqat ta'lim oluvchiga axborotni uzatish tezligini oshirish va uni tushunish intensivligini oshirish imkoniyatgina berib qolmasdan, balki mutaxassis uchun muhim bo'lgan intuisiya, kasbiy sezgirlik, obrazli fikrlash kabi sifatlarni ham rivojlantirishda qobiliyatli hisoblanadi. Xotira hajmi katta bo'lgan eslab qoluvchi qurilmalar va global telekommunikasion muhitlarning paydo bo'lish o'z ishida gilematli, multi va gipermedia texnologiyalarni, virtual tizimlarni qo'llaydigan o'quv dasturli vositalarni yaratishga olib keldi. Bunday tizimlardan foydalanish lazerli kompakt disklarda elektron boshqaruvlar, ma'lumotnomalar, kitoblar va boshqalarni ko'plab adadlashtirish va yaratishga olib keldi SHu bilan birga hozirgi vaqtda elektron o'quv vositalari sohasida uslubiy ishlanmalar texnologik ishlanmalardan keyinda qolmoqda. Bunday ortda qolish tabiiydir, chunki uslubiy rejada o'qitishni qo'llab quvvatlashning elektron vositalari psixologiya, pedagogika, matematika, informatika va boshqa ko'plab fanlar bilimlarini integrasiyalashuvini ta'minlaydi. Aynan uslubiyot muammolarni yechishdagi orqada qolish ta'limda yangi axborot va kommunikasion texnologiyalarni qo'llashning potensial va real imkoniyatlari orasidagi uzilishning asosiy sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ta'limni axborotlashtirish zamonaviy bosqichining tendensiyalaridan biri bo'lib, elektron ma'lumotlarni ensiklopediyalar, ta'lim beruvchi dasturlar, ta'lim oluvchilar bilimini avtomatik nazorat qilish vositalari, elektron o'quv nashri sifatida ko'rib chiqiladigan yagona dasturli uslubiy majmualardagi elektron trenajer dasturiy mahsulotlar, trenajerlar va virtual stendlar kabi elektron vositalarni yaratishga intilish hisoblanadi. Tahliliy ishlarimiz natijalariga ko'ra mamlakatimiz o'quv yurtlariga kirib kelayotgan zamonaviy kompyuterlar asosida o'quv yurtlarini axborotlashtirishga intilish jarayoni talimda elektron uslubiy ta'minotlar uchun yo'l ochib bermoqda. Ta'limni isloh qilish shunday elektron uslubiy ta'minot yaratishni talab qiladiki, ularning mavjud bo'lishi, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun, auditoriya va uy sharoitida bir xil bo'lgan kompyuterli muhitni ta'minlashni taqazo etadi

Shuni ta'kidlash joizki, yangi yaratiladigan darslik, interfaol virtual stend, o'quv qo'llanalarda Vatanimiz shuhratini olamga yoygan fan va madaniyatning gullab yashnashi uchun xizmat qilgan vatandoshlarimiz: Abu Nosir al Farobiy, Ahmad ibn Muhammad al Faorg'oniy, Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Rayhon al Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'ek va boshqa allomalarning fizika, texnika, matematika va tibbiyot sohalaridagi ibratli ishlari yoritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero darsliklarda millat fikrining, millat tafakkurining va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi zarur. Elektron interfaol virtual stend to'g'risida fikr yuritishdan oldin, ularning bosma darsliklardan farqli hususiyatlari to'g'risida to'xtalamiz. Klassik tushunchada darslik bu o'quvchilar uchun kitob bo'lib, unda bilimlarning ma'lum sohasidagi o'quv materiali fan, texnika va texnologiya, hamda madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida tizimli bayon qilinadi. Demak, elektron interfaol virtual stend dasturiy mahsulot ham bosma qo'llanma ham umumiy belgilarga ega va aynan:

- 1) o'quv materiali bilimlarning ma'lum sohasi bo'yicha bayon qilinadi;
- 2) o'quv materiali fan, texnika. texnologiya va madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida yoritiladi;

3) o`quv materiali darsliklarda tizimli bayon qilinadi, ya`ni darslikning butunligini ta`minlaydigan, ma`noli munosabat va aloqali, ko`plab elementlardan tashkil topgan asarni o`zida tasvirlaydi.

Bosma qo`llanmalar mavjudligi tufayli ba`zi o`qituvchilar elektron trenajer dasturiy mahsulot atamasini ishlatishni xush ko`rmaydilar degan fikrlar ham ba`zi ilmiy izlanuvchilar va mualliflar tomonidan bildirilgan. Bu mualliflar "Elektron nashr" atamasini tavsiya qiladilar. Lekin "nashriyot» so`zi bosma mahsulotni ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Xayot o`zgarishi bilan birga texnologiyalar ham o`zgaradi. Izlanishimiz va o`tkazilgan adabiyotlar tahlili natijalari elektron interfaol virtual stendning bosma shaklidan farqli belgilarini aniqlash imkonini berdi. Bizning nazarimizda ushbu hol quyidagilardan iborat deb bildik:

1. Har bir interfaol virtual stend talabalarni tayyorlashning ma`lum boshlang`ich darajasiga mo`ljallangan va o`qitishning yakuniy darajasini tavsiflaydi. Ko`plab umumta`lim fanlari bo`yicha odatdagi (tayanch), murakkabligi yuqori, maxsus va boshqa fanlar darsliklari mavjud. Aniq bir o`quv fani bo`yicha elektron trenajer dasturiy mahsulot murakkablikning bir necha darajasidagi materialni o`z tarkibida saqlashi mumkin. Bunda ular har bir daraja uchun interfaol tartibotda bilimlarni tekshirish uchun ko`p variantli topshiriqlarni o`z tarkibiga saqlagan bo`ladi.

2. Elektron interfaol virtual stend mahsulotda ko`rgazmalilik bosma shakldan ko`ra yuqoriroq. Elektron interfaol virtual stendlarda ko`rgazmalilik ularni yaratishda animasiyalar, tovush kuzatishlar, giperjo`natishlar, videolavxalar va boshqalar kabi multimediyali texnologiyalardan foydalanish bilan ham ta`minlanadi.

3. Elektron interfaol virtual stend sinov topshiriqdari va testlarining ko`p variantlilik, ko`p darajalilik va xilma xilligini ta`minlaydi. Elektron qo`llanma barcha topshiriq va testlarni interfaol va ta`lim beruvchiga tartibli berilishga imkoniyat yaratadi. Noaniq javob paytida tushuntirishlar va izohlar orkali aniq javob berishga erishish mumkin.

Elektron interfaol virtual stend yaratish va tarqatishda bosmaxona ishlari bajarilmaydi. Elektron trenajer dasturiy mahsulotlar o`zining tuzilishi bo`yicha ochiq tizim hisoblanadi. Ularni ishlatish jarayonida tuldirish, takomillashtirish mumkin.

Elektron interfaol virtual stendning ta`lim oluvchilar bilan yaqinlashuvi bosma kurinishdagi shaklidan ko`ra yuqoriroq. Elektron qo`llanmaga talab oshganda uning adadini osongina oshirish mumkin, tarmoq bo`yicha junatish mumkin.

6. Foydalanishda va ishlab chiqish maqsadlariga bogliq ravishda ko`p funksiyaliligini ta`minlash uchun elektron qo`llanmalar turli xildagi tuzilmalarga ega bo`lishi mumkin. Masalan darslarda foydalanish uchun aniq bir fan bo`yicha o`quv dasturiga mos keladigan elektron interfaol virtual stendni yaratish va o`quv materiallini mavjud mavzuni rejalashtirish asosida berish mumkin. Interfaol virtual stend yaratish mavzuni rejalashtirishga bog`lamasdan, balki shunchaki konkret ta`lim bosqichi bo`yicha o`quv rejasiga rioya qilib ishlab chiqish mumkin.

Har qanday darslik (bosma yoki elektron) ikkita asosiy qismdan iboratdir: mazmuniy va jarayonli. Elektron interfaol virtual stendda bularga yana ikkita, ya`ni boshqaruvli va tashhishtirish (diagnostik) qismlar qo`shiladi. Mazmuniy qismi quyidagi komponentlarni o`z ichiga oladi: bilim uzatish, ko`rgazmalilik.

Bilim berish komponenti ta`lim oluvchiga bilimlarni uzatishga yo`naltirilgan bo`lib, unga matnli axborot kiradi. Namoyishli komponent - mazmunni qo`llab-quvvatlaydi va ochib beradi. Jarayonli qism quyidagi komponentlarni o`z ichiga oladi: modellashtiruvchi, nazorat qiluvchi va mustahkamlovchi.

Modellashtiruvchi komponent bilimlarni amaliy topshiriqlarni yechishda qo`llash, o`rganiladigan jarayonlarni modellashtirish imkonini beradi.

Mustahkamlovchi nazorat komponenti talabalar tomonidan o`rganiladigan materialni o`zlashtirish darajasini aniqlaydi.

Elektron interfaol virtual stendlarda mazmuniy va jarayonli qismlar birgalikda taqdim etiladi. Boshqaruvchi qism elektron interfaol virtual stend va komponentlari orasidagi o`zaro aloqani ta`minlashga qobiliyatli bo`lgan dasturli

qatlamni o`zida tasvirlaydi. Tashhisli qism aniq dasturlar bilan ishlash haqidagi statistik axborotlarni saqlaydi.

Elektron interfaol virtual stend quyidagi xossalarga ega bo`lishi kerak:

- o`quv mashg`uloglarini yuqori sifatli darajasida o`tkazilishini ta`minlash;
- bilimlarning o`zini hosil qilish va o`zini baholash imkoniyatlarini yaratish;
- ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarni o`zaro yaqinlashtirish;
- axborotli ta`lim resurslari rivojlanishining garmonik tasnifiga ega bo`lish;
- matnli va boshqa axborotli materiallar yangilangan (gipermatinlar) va illyustrasiyalangan (multimediya vositalari, rasmlar, jadvallar, diagrammalar va boshqalar) bo`lishi kerak;

- elektron interfaol virtual stend rasmiy matnga yoki ma`lumotnomaga aylanmasligi kerak:

Elektron interfaol virtual stend ta`lim jarayoniga inson miyasi imkoniyatlarini, xususan, eshitish va emosional xotirasini jalb qilib, shuningdek kompyuter samaradorligidan foydalanib tushunishni, mavjud tushunchalar va misollarni eslab qolishni maksimal darajada yengillashtirishi kerak.

1.2. Interfaol virtual stendlar yaratish bo`yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili

Axborot kommunikasiya texnologiyalari sifatida multimediali dasturiy vositlardan foydalanishning asosiy maqsadi, ta`limning sifatini oshirishga yo`naltirilgan. SHu sababli albatta ma`ruza bo`ladimi, amaliy mashg`ulotmi yoki laboratoriya darsimi bundan qa`tiy nazar, zamonaviy kompyuter va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati tug`iladi. Umuman yangi axborot texnologiyalarni ta`lim jarayoniga tatbiq qilish, o`qitish sifatiga ta`sir qiladimi? Dars o`tishda kompyuterdan foydalanish zarurmikan? Eng ishonchlisi bo`r va doska emasmi. SHu paytgacha darsliklar, o`quv qo`llanmalari va boshqa manbalar va dars berish qurollaridan unumli foydalanib kelayotgan professor – o`qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalarni o`qib – o`rganib o`zlashtirishlari

shartmi? – degan savollarga javob berish asnosida mavzuning mazmunini asoslab berishga xarakat qilaylik.

Zamonaviy kompyuter vositalari va multimedia texnologiyalari ta'lim jarayonida didaktik material tayyorlash vazifasini yengillashtiradi. Kompyuter bilan didaktik materiallarni uyg'unlikda qo'llash o'rganilayotgan mavzuni talabalar tomonidan o'zlashtirishda katta yordam beradi. Konfusiy «eshitganimni yodimdan chiqaraman, qo'rganiimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib yetaman», degan ekan. Ta'limda informasion hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llaganda, o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari qatoriga, kompyuter texnologiyasini kiritish zarurati kundan kunga oshib bormoqda

Dars jarayonida kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalanish bu birdan – bir maqsad emas, balki yoshlar dunyosini faxmlashning – anglashning ya'na bir usulidir, to'laroq axborot berishning qo'shimcha usulidir, o'qituvchi ta'lim berishi – yoshlarni bilim olishining va mehnat qilishining ilg'or usulidir, yoshlarning individual bilim olishi faolligi doirasini, dunyoqarashini kengaytirishning ya'na bir usuli hisoblanadi. Hozirgi zamonda ilmiy fikrlash va ilmiy texnika progressi keskin va intensiv ro'y bermoqda. SHundan kelib chiqqan xolda zamonaviy professor – o'qituvchilar, ya'ni murabbiylar zamon bilan hamnafas bo'lgan holda axborot kommunikasiya texnologiyalarini qo'llashni bilishlari shart va zarur hisoblanadi.

Dars jarayonida multimediali dasturiy vositalar, trenajyor dasturlar va o'rgatuvchi dasturiy ishlanmalardan foydalanish o'qituvchi va talabalarga, interaktiv o'quv qo'llanmalari bilan bog'liq bo'lgan yangidan – yangi o'ziga xos qulayliklar yaratadi. Kompyuterni boshqa o'qitish vositalari masalan proektor elektron doskalar bilan operativ qo'shilishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanib ma'lumot berish xajmini oshiradi va bu bilan o'qituvchi uchun dars vaqtidan unumli foydalanishga imkoniyat yaratadi. Dars jarayonida kompyuter texnologiyasi elementlarini ko'proq qo'llash, o'quv jarayonini xilma – xilligini

osHIRISHga yordam berib, talabalarni - tinglovchilarni zerikish “kasalligidan” qutqaradi, ta`lim berishni sifat jixatdan yangi, yuqori pog`onalarga ko`taradi, benuqson o`quv darsliklari bilan ta`minlashga erishiladi, shaxs rivojlanishiga yordam beradi, talaba va o`qituvchining ijodiy potentsiali va bilish faolligini shakllantiradi ularda o`qishga, hayotga bo`lgan qiziqishini orttiradi. Bizning fikrimizcha dars jarayonida kompyuterdan foydalanish quyidagi hollarda o`zining eng effektiv samarasini beradi, ya`ni yangi materialni tushuntirishda, notanish termin va tushunchalarni asoslab berishda. Bu yerda eng asosiysi ma`ruzaning qisqacha mazmuni va ko`rgazmalilik. O`qituvchi prezentasiya slaydlarini ko`rsatayotgan paytda, har – xil rasmlar, formulalar va grafiklarni ko`rsatishi, trenajyor yordamida bajarib berishi, ma`ruzani qisqa va lo`nda qilib yozdirishi mumkin. Bunda talaba bir vaqtning o`zida eshitayotgan tushunchalarini ko`zi bilan ko`rib ham turadi.

Ma`lumki, axborotning katta qismi ko`rish orqali olinadi. Darsda o`tilgan mavzuni umumlashtirish va mustaxkamlash hamda chuqur va yaxshilab o`rganish uchun trenajyor dasturladan, kompyuterga kiritilgan elektron testlardan foydalanish o`z navbatida talabalarda mazkur fan bo`yicha ko`nikma va maxoratni shakllantiradi. Ularda yangi kompyuter dasturlariga bo`lgan qiziqishini rivojlantiradi.

Darslarda ham yangi ma`lumotlarni yetkazishdan avval o`qituvchi ularning dastlab olgan bilimlarini, tasavvurlarini aniqlashtiradi, bir tizimga soladi, olingan bilimlar har xil ko`rgazmali vositalar, slaydlar, multimedia trenajyor dasturiy vositalari, tarqatma materiallar, qo`shimcha adabiyotlar bilan mustaxkamlansa maqsadga muvofiq bo`ladi.

2014 yil 30 mayda Toshkent davlat agrar universitetida o`tkazilgan “Innovation fan-ta`lim tizimini rivojlantirishning barkamol avlodni voyaga yetkazishdagi roli va ahamiyati” mavzusida o`tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyada izlanuvchi N.X.Noraliev “Axborot texnologiyalari – oliy ta`limda o`qitishning eng samarali vositasidir” mavzusidagi dokladida aynan mana shu

multimediali vositalar yordamida o`qitish jarayoni samaradorligini tahlil qilib o`tadi.

SHuningdek izlanuvchi muallif T.Axmedov ham “Axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi” mavzusida keltirib o`tgan maqolasida ham ta`lim tizimi nuqtai nazaridan axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan birga yuzaga keladigan muammolar to`g`risida fikrlarini keltirib o`tadi.

Ta`lim tizimida axborot, innovasion va pedagogik texnologiyalarni o`rganishga ajratilgan soatlarni talabalarga multimedia vositalari asosida yetkazishga doir A.A.Hamidov, X.V.Manopovlarning “O`quv jarayoniga pedagogik va axborot kommunikasiya texnologiyalarni joriy etish” mavzusidagi maqolasida keltirib o`tiladi.

Trenajyor dasturiy vositalar yordamida o`rgatuvchi multimediali o`qitish tizimini yaratishga doir juda ko`plab olimlar ham faoliyat olib borishgan va izlanishlar bugungi kunda ham davom etmoqda. Bizni bitiruv malakaviy ishda keltirilgan mavzuda ham shu yo`nalishga oid tadqiqot olib borish vazifasi qo`yiladi.

1.3. Multimedia o`qitishda elektron virtual tajriba stendlarni loyihalash bosqichlari

Multimediali virtual tajriba stendlarni ishlab chikish uzoq muddatli va katta mablag`larni talab qiluvchi jarayondir. SHuning uchun elektron virtual stend yaratishning barcha bosqichlarini hamda har bir bosqichdagi qabul qilinishi mumkin bo`lgan yechimlarni oldindan belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Bunda quyidagi bosqichlarni bajarish zarur bo`ladi:

Dastlabki bosqichda multimedia muxitida ko`rsatilishi kerak bo`lgan o`quv fani tanlanadi. Bunda ushbu fan bo`yicha oldin tayyorlangan kurslar aniklanishi, dasturiy vositani yaratish uchun mo`ljallangan mablag` va vaqtni, shuningdek

mo'ljallangan auditoriyasi belgilanishi zarur bo'ladi. Auditoriya tipi multimedia vositasiga qo'yiladigan umumiy talablarni aniqlash imkoniyatini yaratadi. Umum ta'lim kurslari o'quvchilarning turli darajali umumiy tayyorgarligini xamda kompyuter savodxonligini xisobga olgan xolda o'qitishning xususiyatlarini inobatga olishi kerak. Bunday kurslarda o'quvchilarni bilimlarini aniqlash va shu asosda optimal bayon qilish tizimini yaratish maqsadida o'quvchilarni dastlabki testdan o'tkazish vositasini kiritish maqsadga muvofik bo'lar edi. Maxsus ta'lim kurslari tayyorlanish darajasini xisobga olinishi zarur, o'tilgan mavzularni qaytarmasdan oxirgi axborotlarni berishni tashkil etishi kerak.

Tayyorgarlik bosqichida mavzu matnini yozish, ko'rgazmali va ma'lumotli materiallarni tayyorlash, interfeys eskizlarini va o'quv dasturining ssenariyasini, shuningdek aloxida bloklarning ssenariyalarini (animasion fragmentlar, videofragmentlar, kompyuterli modellashtirishni amalga oshiruvchi dasturlar, bilimlarni tekshirish bloklari va boshqalar) yaratish mo'ljallanadi. Bu bosqichda o'rganuvchining psixologik tipidan kelib chiqqan xolda o'quv virtual stend materialini (shakli va mazmuni bo'yicha) ko'rsatishning turli variantlari ishlab chiqiladi. Bunday xollarda, dastavval, psixologik test o'tkazish xam kerak bo'lib qolishi mumkin.

O'quv interfaol virtual stendining matni bilan ishlashda shu kursda o'tiladigan mavzular ro'yxati asosida matnning tuzilmasini yaratish kerak bo'ladi. Bunda xamma mavzular ko'rsatilgan xolda matn bo'lim, bob, paragraf va shunga o'xshashlarga bo'linadi. O'quvchi uchun bilimlar va ko'nikmalar to'plami oldindan aniqlangan bo'lsa, u xolda xar bir bo'lim xam o'z oldiga qo'ygan maksadga erishadi. SHuning uchun turli xil usullardan foydalanish maqsadga muvofikdir. Bularga shriftlar yordamida ajratish, grafika, rasmlar va multiplikasiyalarni ishlatish kirishi mumkin. Bu maqsadda natijalarni chiqarishni kuchaytirish mumkin: asosiy formulalar ro'yxatini keltirish, asosiy qoidalarni yoritish, jadvallar tuzish. Matnga keyinchalik katta o'zgarishlar kiritmaslik uchun mukammal taxrirlanadi.

Mavzuning multimedia senariysini yaratish ishlari olib boriladi. Multimediali **virtual tajriba stendi** yordamida o'qitishda mavzular va kerakli komponentlar ro'yxati ko'rsatiladi, undan tashqari uning dastlabki tuzilmasi yoritiladi. Bunga animasion, audio va videofragmentlarni, illyustrasiyalarni va boshqalarni bayon etish kiradi. Multimediali virtual stend yordamida o'qitishda mavzularni yozish tanlangan dasturiy ta'minotning imkoniyatlaridan va tayyor birlamchi materiallardan kelib chiqqan xolda amalga oshiriladi. Multimediali virtual stend yordamida o'qitishda mavzular to'liq ssenariyasi deb oddiy matnni va unga aloqador mavzular, bo'limlar yoki tushunchalar, tasvirlar, ovoz, videofragmentlar bilan boglik bulgan gipermatnni ishlatishga xamda jadvalli axborotni, illyustrativ (grafika, sxema, rasmlar) materiallarni, animasion rasmlar, fotomateriallar, audio- va videofragmentlar, kompyuter modellarini ishlatishga aytiladi.

Asosiy bosqichda elektron virtual tajriba stendi yordamida multimediali o'qitishda manbani yaratish bo'yicha ishlar bajariladi. Bunda uning mazmuni ko'rsatish shaklidan yuqori turishi kerak. Materialni ko'rsatish shakli mukammal bo'lishi kerak. Saxifada o'quvchining diqqatini chalg'ituvchi keraksiz (matn yoki grafik shaklidagi) axborot bo'lmasligi kerak. Fon monotonli bo'lishi kerak, lekin ok bo'lishi shart emas. O'qish rangdagi fonni ishlatishga tavsiya beriladi, bunda xarflarning rangini qora yoki qora-ko'kimtir ranglarda yozish maqsadga muvofiqdir. Qora rangi fon va o'qish rangli shriftni ishlatish tavsiya etilmaydi, chunki, bunday ekran o'quvchining ko'zini tezda charchatadi. Dasturga grafik tasvirlarni qo'yilayotganda saxifalar turli xil grafik va rangi imkoniyatlariga ega bo'lgan tizimlar orqali ko'rsatilishini inobatga olgan xolda ko'p tarqalgan apparatli vositalarga moslashishni ta'minlash kerak. Tasvirlarni zichlashgan grafik formatlarini (GIF, JPEG va boshqalar) ishlatilsa o'quv dasturining umumiy xajmi ancha kamayadi.

Interfaol vertual tajriba stendi uchun videofragmentlarni yaratishda kompyuter videomontaji bo'yicha dasturiy-texnikaviy komplekslar ishlatiladi.

Bunda montajda kerak bo'ladigan tasvir va ovozlar to'plamini oldindan tayyorlab olish kerak. Montajning sifatiga tanlangan dasturiy ta'minot javob beradi. Materialni qabul qilishda faol ta'sir etuvchi elementlardan biri bu ovozdir. Ovoz, suhandon tomonidan aytilgan ibora, personajlarning dialoglari yoki videofragmentning ovozli olib borish kabi xollarda beriladi. Ovoz bilan ishlashda ovozni chiqarish, yozish xamda sintez qilish imkoniyati bor turli dasturiy ta'minot ishlatiladi.

Multimedia o'qitishda mavzular elementlarini yaratish parallel olib borilishi mumkin. Ularni birlashtirish yakunlovchi bosqichda amalga oshiriladi. Virtual snend yordamida multimediali o'qitishda mavzularga bo'linadi, gipermatnlarga jo'natish tizimi shakllantiriladi. O'quv multimedia kurslari uchun xarakterli bo'lgan katta xajmdagi axborotlarni faqat yaxshi ishlab chiqilgan interfeys va navigasiya tizimlari orqali qamrab olish mumkin.

Yakunlovchi bosqich o'tkazilgandan so'ng elektron virtual tajriba stendi yordamida multimediali o'qitish mavzulari asosida testdan o'tkazish va maqomiga yetkazish ishlari amalga oshiriladi. Muvaffaqiyatli testdan o'tkazilgan multimedia virtual stend intellektual mulk sifatida ro'yxatdan o'tkazish maqsadga muvofiq.

1.4. Masalaning o'rganilgan darajasi va uning qo'yilishi

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev raisligida 2018 yil 9 yanvar kuni axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda 2018 yilda xalqaro tajribani, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari rivojlanishi tendensiyalarini inobatga olgan holda, "2018-2021 yillarda "Elektron hukumat" tizimini yanada rivojlantirish strategiyasi"ni ishlab chiqish, "Mirzo Ulug'bek innovasiya markazi» rezidentlari tomonidan ko'rsatiladigan ishlar va xizmatlar hajmini kamida 2 barobar hamda eksport hajmini 1,8 barobar oshirish, rezidentlar

uchun chet el kompaniyalari bilan hamkorlik qilish va yangi bozorlarga chiqishda ko`maklashish bo`yicha tegishli topshiriqlar berildi. Qobiliyatli, izlanuvchan hamda ijodkorlikka ishtiyoqi bor farzandlarimizni o`zi qiziqqan axborot-kommunikasion texnologiyalari yo`nalishida chuqurlashtirilgan saboq olishi, ularni kelajakda albatta yuksak malakali mutaxassislar bo`lib yetishshishlarida asosiy omil bo`lib xizmat qiladi.

Keltirib o`tilgan maqsadlarga erishish uchun esa, ta`lim sifatini oshirish, bunda o`rgatuvchi interfaol virtual stendlarning sifatini oshirishga alohida ahamiyat berish talab etiladi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirib o`tilgan “Sxemotexnika” fanidan “Mikroprosessorlar sxemotexnikasi asoslari ” mavzusi bo`yicha interfaol virtual stend yaratish mavzusidagi qo`yilgan masalani yechish uchun quyidagi muammolarni hal qilish talab qilinadi:

- O`zbekistonda axborotlashtirishning milliy tizimi va virtual stendlar yaratishdagi asosiy vazifalar tahlilini amalga oshirish;
- Virtual stendlar yaratish bo`yicha amalga oshirilgan ishlar tahlilini amalga oshirish;
- Multimedia o`qitishda elektron interfaol virtual stendlarni loyihalash bosqichlarini tahlil qilish;
- Sxemotexnika faniga oid me`yoriy hujjatlar va ularning tahlilini amalga oshirish;
- Interfaol virtual stendlarni yaratish dasturiy vositalari va ularning solishtirma imkoniyatlarini ochib berish;
- Interfaol virtual stend dasturiy mahsulotlarni yaratishda kompyuterning texnik imkoniyatlariga talablarni ishlab chiqish;
- Mikroprosessorlar sxemotexnikasi asoslari mavzusi nazariy ma`lumotlarni shakllantirish;
- Mikroprosessorlar sxemotexnikasi asoslari mavzusi bo`yicha interfaol virtual stend yaratish texnologiyasini ishlab chiqish;

- Yaratilgan interfaol virtual stendidan foydalanish yo`riqnomasini shakllantirish;
- Amaliy dars mashg`ulotlarini interfaol virtual stend dasturiy mahsulotlaridan foydalanib tashkil etish;
- O`quv kompyuter sinfida xavfsizlik texnikasi qoidalarini ishlab chiqish;
- O`quv laboratoriya xonalarida kullanilayotgan elektr jixozlaridan xavfsiz foydalanish chora va tadbirlarini ishlab chiqish.

Umumiy qilib aytganda, ta`lim soxasida pedagogik va axborot – kommunikasion texnologiyalardan, internet axborot ta`lim resurslaridan hamda konferensiya usulidan foydalanish o`quvchilarining olayotgan bilimlarni yuqori saviyada bo`lishida samarali yordam beradi va ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo`lib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

2-BOB. SXEMOTEXNIKA FANIGA OID ME`YORIY HUJJATLAR VA VIRTUAL STEND YARATISH DASTURIY VOSITALARI

2.1. Sxemotexnika faniga oid me`yoriy hujjatlar va ularning tahlili

**Fanni o`qitishdan maqsad** - Talabalarga, fanni o`qitishda asosiy e`tibor mantiqiy va raqamli qurilmalar (trigger, schyotchik, multivibrator. ASP - sAP va x,k) ishini va ularni EHMLarda foydalanishning fizik prinsiplariga qaratiladi. Shuningdek elektron qurilmalar yordamida mantiqiy elementlar. hotira elementlari hamda odam - EHM muloqatidagi o`zaro informasiya almashuvining fizik prinsiplari sxematexnika yordamida tushuntiriladi. Talabalarga elektron xisoblash mashinalarining tuzilishi. ularning ishlash prinsiplari va EHMLarda ishlatiladigan elementlarning qo`llanishi, tuzilishlarini va ular ustida bajariladigan amallarni o`rgatishdan hamda o`qitish metodikasi bo`yicha ko`nikmalarga ega bo`lishi.

Fanning vazifasi - Bo`lajak muxandis-pedagogga «Sxemotexnika» fanini o`qitishdan maqsad ushbu mutaxassislik talabalarida elektron qurilmalar va boshqa elektrotexnik qurilmalarning ish rejimlarini o`rganishda ko`nikma hosil qilish va bilim berishdir. Bu qurilmalarga mantiqiy va raqamli elementlar, yarim o`tkazgichli elementlar tuzilishidi va bular bo`yicha talabalarga nazariy bilim berish va amaliyotda o`rgatishdan iborat.

**Fan bo`yicha talabalarning bilimiga, ko`nikma va malakasiga qo`yiladigan talablar.** «Sxemotexnika» fani texnikaviy fanlardan bo`lib, ushbu fanga talabalarda quyidagi keltirilgan bilim va ko`nikmalarni xosil qilish vazifasi yuklanadi:

- sxematexnika, uning maqsad va vazifalarini, kundalik xayotda va ishlab chiqarish tizimlarida elektr ta`minotining egallagan o`rni ***bilishi kerak***;
- sxematexnikadagi asosiy atamalar va tushunchalarini, sxematexnikani, vositalari va elementlari, sxematexnika tizimlarida xisoblash usullari va

ularni tadbiq etish, sxemotexnika tizimlarida jixoz va uskunalarni hisoblash, tanlash usullari bo'yicha ko'nikmalarga *ega bo'lishi kerak* ;

- sxemotexnika tizimini tashkil etish uslublarini o'rganish, sxemotexnika tizimini texnik iqtisodiy samaradorligini ko'rsatkichlarini o'rganish bo'yicha malakaga *ega bo'lishlari kerak*.

